YASSAVIYLIK ADABIY AN'ANASIDA BARMOQ SHE'R TIZIMI THE SYLLABIC VERSE SYSTEM IN THE YASSAVI LITERARY TRADITION

https://doi.org/10.70728/phil.v05.i04.112

Rajavaliyev Boburjon Dilshodjon o'g'li
boburjonrajavaliyev1011@gmail.com
FDU

Annotatsiya: Mazkur maqolada 15-16-asrlarda shakllangan yassaviylik adabiy an'anasining vazn tizimi, xususan, barmoq she'r tizimining qo'llanishi va rivojlanish xususiyatlari tahlil etiladi. Tadqiqotda yassaviylik tariqatining she'riyatga ta'siri, xalq og'zaki ijodi bilan uzviy bog'liqligi hamda barmoq tizimining sodda, ravon va ommabop shakl sifatida keng qo'llanganligi ilmiy asosda yoritiladi. Shams O'zgandiy, Xudoydod va Ubaydiy ijodi misolida mazkur vazn tizimining poetik imkoniyatlari, ritmik qurilishi va g'oyaviy vazifalari ochib beriladi. Maqolada ushbu ijodkorlar asarlarida barmoq vazni orqali diniy-irfoniy mazmunni xalqona ohangda yetkazish an'anasi izchil davom etgani ko'rsatib beriladi. Shuningdek, shakl va mazmun uyg'unligi, she'riy shaklning ichki musiqiyligi hamda yassaviylik adabiy merosining keyingi davr adabiyotiga ta'siri haqida xulosalar chiqariladi.

Kalit so'zlar: Yassaviylik, barmoq vazni, aruz vazni, she'riyat, 15-16-asr adabiyoti, Shams O'zgandiy, Xudoydod, Ubaydiy, irfoniy adabiyot, xalq og'zaki ijodi, vazn tizimi, poetika, ritm, an'ana, diniy-falsafiy g'oyalar

THE SYLLABIC VERSE SYSTEM IN THE YASSAVI LITERARY TRADITION

Rajavaliyev Boburjon Dilshodjon o'gli
boburjonrajavaliyev1011@gmail.com
FSU

Abstract: This article analyzes the metrical system of the Yassavi literary tradition formed in the 15th-16th centuries, with particular focus on the use and developmental features of the syllabic meter. The study scientifically examines the influence of the Yassavi Sufi order on poetry, its close connection with oral folk literature, and the widespread use of the syllabic meter as a simple, fluent, and popular poetic form. Based on the works of Shams O'zgandiy, Xudoydod, and Ubaydiy, the poetic potential, rhythmic structure, and ideological-aesthetic functions of this metrical system are revealed. The article demonstrates that in the works of these poets, the

(cc) BY

tradition of conveying religious and mystical meanings in a folk-like tone through the syllabic meter was consistently maintained. It also draws conclusions about the harmony between meter and content, the internal musicality of poetic form, and the influence of the Yassavi literary heritage on later literary developments.

Keywords: Yassavism, syllabic meter, aruz meter, poetry, 15th-16th century literature, Shams O‘zgandiy, Xudoydod, Ubaydiy, mystical literature, oral folk literature, metrical system, poetics, rhythm, tradition, religious-philosophical ideas

KIRISH

XV asrning so‘nggi choragi va XVI asr boshlarida o‘zbek adabiyoti Markaziy Osiyo madaniy sivilizatsiyasida o‘ziga xos o‘tish davri sifatida xarakterlanadi. Temuriylar saltanatining parchalanishi natijasida siyosiy hokimiyat Shayboniylar hamda Boburiylar sulolalari qo‘liga o‘tishi bilan birga, adabiy muhit markazlarining o‘zgarishi ham yuz berdi. Agar XV asr o‘rtalarida adabiy hayot asosan Hirotda kechgan bo‘lsa, XVI asrga kelib Buxoro, Samarqand, Toshkent va Hindistonning yirik shaharlari mustaqil adabiy markazlar sifatida shakllandi.

Mazkur davr adabiyotida Alisher Navoiy asos solgan “oltin davr” adabiy an’analari saqlanib qolishi bilan birga, yangicha badiiy tafakkur va janrlar sinkretizmi kuchaya bordi. Buning natijasida XV-XVI asrlargacha an’anaviy hisoblangan janrlar bilan birgalikda yangicha qarashlar paydo bo‘ldi. XVI asr boshlaridan e’tiboran adabiy jarayonning mazmuni va ijtimoiy vazifalarida sezilarli o‘zgarishlar kuzatiladi. Bu davr adabiyotining mavzu doirasi kengaydi: endi adabiy tafakkur faqat ishq-muhabbatni kuylash bilangina cheklanmay, tarixiy-voqeiy tafsilot, siyosiy holat, sulola va saltanat qurilishi, yurishlar bilan bog‘liq jarayonlarni ham badiiy idrok etishga intildi.

Mazkur o‘tish davrining muhim belgilaridan biri - an’ana va novatorlikning parallel kechishi, ya’ni Navoiy asos solgan “oltin davr” poetik me’yorlarining saqlangan holda, adabiy jarayonda tarixiylikning kuchayishi va yangicha tasvir uslub elementlarining paydo bo‘lishidir.

XV-XVI asrlar o‘zbek adabiyoti Navoiy yaratgan badiiy an’analarni davom ettirgan holda, adabiy tafakkurning yangi yo‘nalishlarga yuz tutishi bilan ham ahamiyatlidir. Bu davrda adabiyot faqat “mumtoz she’riyat” doirasida qolmay, hayot voqealarini aniqroq tasvirlash, muallif shaxsining ichki kechinmalarini ochiqroq ko‘rsatish va nasr orqali tarbiyaviy g‘oyalarni badiiy shaklda bayon qilish tomon kengaydi.

Bu davrda yassaviylik adabiy an’anasining uzluksiz davom etishi XV-XVI asrlarda o‘zbek adabiyotning milliy va ma’naviy ildizlari uzilmasligini ta’minlagan muhim omillardan biridir. Yassaviy asos solgan adabiy an’anani Ubaydiy, Xudoydod, O‘zgandiy, Iqoniy kabi ijodkorlar XV-XVI asrlarda davom ettirdi. Biroq mazkur davr yassaviylik adabiy an’anasini o‘rganishga doir mavjud adabiyotlar, asosan, maqola va

(cc) BY

tezis ko‘rinishidagi ilmiy ishlar bilan cheklanib, uni yaxlit tizim sifatida tahlil qiladigan, ilmiy muomalaga keng ko‘lamda kiritadigan monografik tadqiqotlar yetishmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yassaviylik adabiy an’anasini tahlil qilishda, avvalo, uning shakliy belgilariga e’tibor qaratiladi. Bu belgilar hikmatlarga xos kompozitsion qurilish, band va misra tuzilishi, turoqlanish hamda qofiyalarning muayyan tarzda takrorlanishi bilan izohlanadi. Mazkur shakliy barqarorlik yassaviylik adabiy an’anasining davomiyligini ko‘rsatuvchi muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Hikmatnavis shoirlar ijodining she’r tuzilish xususiyatlarini tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etadi. Ular o‘z ijodida aruz she’r tizimidan tashqari, turkiy she’riyatga xos bo‘lgan barmoq tizimini ham samarali qo‘llaganlar. Asrlar davomida hukmron bo‘lib kelgan aruz tizimi bilan yonma-yon barmoq vazni turkumlarining ham bugungi kungacha yetib kelishida Yassaviy izdoshlari xizmatini alohida e’tirof etish lozim.

“Devoni hikmat”dagi she’rlarning vazn xususiyatlari tekshirilganda barmoq she’r tizimidir yetakchi ekanligi aniqlandi. Milliy she’r vazni, xususan barmoq tizimining yassaviylik adabiy an’analarida davom etganligi turkiy mumtoz adabiyot taraqqiyotini anglashda muhim mezonlardan biridir. Yassaviylik maktabi vakillari hikmatlar vositasida tasavvufiy g‘oya va didaktik mazmunni oddiy xalqqa yetkazishni ko‘zlagan va shu maqsadga eng mos poetik vosita sifatida xalqona ohang va tabiiy ritmni ta’minlaydigan milliy vazn imkoniyatlaridan keng foydalangan. Natijada barmoq vazni yassaviylik ijodida nafaqat saqlanib qolgan, balki shaklan takomillashib, hikmatlarni xalq ommasiga yaqinlashtiruvchi badiiy vositaga aylangan.

Hikmatlarning qurilishi tasavvufiy g‘oyani (nafsni tiyish, tavba, fanolik, zikr, oxirat haqidagi tasavvurlarni) sodda va esda qoladigan shaklda ifodalashga xizmat qiladi. Ayniqsa, hikmatlarning xalq og‘zaki ijodiga mosligi, ohang bilan o‘qilishi - barmoq vaznining yassaviylik doirasida yashovchan bo‘lishiga omil bo‘lgan. Shu bilan birga, yassaviy izdoshlarida vazn an’anasi faqat she’riy unsur sifatida emas, balki adabiy-madaniy merosning davomiyligini ifodalovchi tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi. Ya’ni yassaviylik an’anasida milliy vazn turkiy tilning bo‘g‘in tizimiga mosligi bilan ajralib turadi, bu moslik esa hikmatlarning xalq orasida tez tarqalishi, yod olinishi va avloddan avlodga o‘tishini osonlashtirgan. Yassaviy izdoshlari ijodida she’r tuzilishi va vazn an’anasining davom etishi ikki qatlamli hodisa sifatida baholanishi mumkin: birinchidan, bu - shakliy-ritmik barqarorlikka asoslangan poetik tizim; ikkinchidan, bu - milliy badiiy tafakkurning tarixiy uzluksizligini ta’minlagan adabiy an’ana. Shu jihatdan, hikmatnavis shoirlar merosini tadqiq etishda barmoq vazni va uning kompozitsion belgilari alohida ilmiy tahlil obyekti bo‘lishi zarur, chunki mazkur omil yassaviylik adabiy maktabining xalqona ruhini, ta’sirchanligini hamda mumtoz

(cc) BY

adabiyotimizdagi o‘ziga xos mavqeyini to‘liqroq ochishga imkon beradi.Начало формы

Hikmatnavis shoirlar ijodidagi she’riy shakl an’anasini tekshirish uchun, avvalo, Ahmad Yassaviy “Devoni hikmat”ining she’riy tizimlari xususida to‘xtatilib o‘tish zarurdir. Hikmatlarning poetik tabiatini izohlashda ularning qadimgi turkiy xalq og‘zaki ijodi bilan uzviy aloqadorligini alohida ta’kidlash lozim. O‘zbek adabiyotshunosligida ushbu masala bilan jiddiy shug‘ullangan olimlar orasida birinchilardan bo‘lib Abdurauf Fitrat o‘z mulohazalarini yuritib “Yassaviyning adabiyotda tutgan yo‘li soda xalq shoirlarimiz tutqon yo‘llaridir. Uning hikmatlari vaznda, qofiyada, uslubda xalq adabiyoti atalg‘an she’rlar bilan barobar yurgan”[1;31], deydi. Adabiyotshunos Abduqodir Hayitmetov ham ushbu masalaga e’tibor qaratib, hikmatlarning badiiy ifodasi g‘oyat turkona bo‘lib, xalqchillik tendensiyasi XI-XII asrlardayoq yuzaga kelganligini ta’kidlaydi[2;14]. Turk olimi Fuad Ko‘prulu o‘z tadqiqotlarida Yassaviy hikmatlari vazni masalasiga to‘xtalib o‘tib, “Yassaviy hikmatlarining shakli va ruhi tasavvufiy adabiyotda asrlar osha o‘zgarishsiz yetib kelgan”[3;125], deydi. Ahmad Yassaviy hikmatlarining vazn xususiyatlarida haqida ham olimlar o‘z tadqiqotlarida turlicha fikr bildirganlar. Adabiyotshunos Maqsud Shayxzodaning fikricha, Yassaviy she’rlarining vazni o‘z holicha saqlanib qolgandir[4;207]. Rus turkologiyasida ham bu masala keng tadqiq etilgan. A.N.Samoylovich, V.Bartold va Y.E.Bertels kabi olimlar “Devoni hikmat”dagi she’rlarning vazniga alohida e’tibor qaratishgan. Ular tadqiqotlarida yassaviylik adabiy an’anasining islomgacha bo‘lgan turkiy xalq og‘zaki she’riyat bilan aloqasiga urg‘u berishgan[5; 345].

NATIJALAR

Qadimgi turkiy xalq og‘zaki ijodi poetik tafakkuri, shuningdek, she’riy tuzilishi, vazn, qofiya hamda band qurilishini tasavvur etishdagi eng ishonchli yozma manbalardan biri Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridir. Chunki muallif so‘z ma’nolarini izohlash jarayonida ularni jonli til muhitidan olingan namunalar bilan dalillaydi: maqol-matal, aforizmlar bilan bir qatorda qo‘shiq va she’riy parchalardan ham keng foydalanadi. Natijada asar lug‘aviy qomus bo‘lish bilan birga XI asr turkiy xalqlar og‘zaki ijodiyotini saqlab qolgan yodgorlik vazifasini ham bajaradi. Ikki qadimgi manbadagi she’rlarni taqqoslash “Devoni hikmat”ning shakl xususiyatlari asosini aniqlash borasida ilmiy xulosalar chiqarishga yordam beradi. “Devoni lug‘otit turk”dagi she’riy parchalar barmoq she’r tizimining oltilik, yettilik, sakkizlik, to‘qqizlik, o‘nlik, o‘n birlik, o‘n ikkilik, o‘n to‘rtlik, o‘n beshlik turkumlariga mansubdir. “Lug‘at”da keltirilgan she’riy parchalarda o‘n ikkilik tizimdagi she’rlar ham oz emas. Ularda bo‘g‘inlar 4+4+4, 6+6, 7+5 shaklida turoqlanganligini ko‘rish mumkin.

4 4 4

(cc) BY

Tamg‘a suvi/ tashra chiqib/ tag‘ig‘ o‘tar 12

Artuchlari/ tegra unub/ tizgin jetar[6;200]. 12

“Devoni hikmat”dagi she’rlarning ham aksariyati barmoq she’r tizimining o‘n ikkilik turkumida (4+4+4) bitilgan. Bu turkumda bitilgan hikmatlarda pand-nasihat, tasavvufiy-ruhiy kechinmalar tasviri uchraydi.

4 4 4

Yo ilohim,/ hamding birla/ hikmat aytdim, 12

Zoti ulug‘/ Xojam sig‘nib/ keldim mano. 12

Tavba qilib,/ gunohingdin/ qo‘rqub qaytdim, 12

Zoti ulug‘/ Xojam sig‘nib/ keldim mano[7;25]. 12

O‘n ikkilik turkumda yozilgan hikmatlarning aksariyati to‘rtlik shaklida bo‘lib, birinchi band o‘zaro a-b-a-b shaklida, qolgan bandlar esa a-a-a-b shaklida qofiyalangan. Bundan tashqari, bandlarning oxirgi misrasi birinchi bandning to‘rtinchi misrasi bilan o‘zaro qofiyalandi. Bu esa she’rning shakl va mazmun jihatdan bir butun ekanligini bildiradi. Xuddi shunday shakliy an’analar Yassaviy izdoshlari ijodida ham uchraydi. Jumladan, Ubaydiy bir qancha hikmatlari ham ushbu turkumda yaratilgan:

Olimu Hay,/ Qodir Tangrim/ birligini 12

O‘zi bergan/ irfon bilan/ bildim mano. 12

“Ati’ulloh”/ oyatini/ eshitgani, 12

Jonim bila/ itoatin/ qildim mano[8;42]. 12

“Boqirg‘on kitobi”da Xudoydodga tegishli bo‘lgan ikkita (19-B, 19-V) hikmatlar ham shu vaznda yaratilgan:

Tun-kun saning/ hajringda, man/ hayron o‘lub 12

Shavq o‘tiga/ bag‘rim kuyor/ biryon o‘lib, 12

Qonlar oqar/ ko‘zlarim/ giryon bo‘lib, 12

Yo ilohim/, nechuk sani/ tobg‘oy mano[9;80]. 12

Bandlar tarkibidagi to‘rtinchi misralar o‘zaro qofiyalanish bilan birga, ba’zi hollarda ushbu misra butun asar davomida to‘la takrorlanadi. Bunday poetik qurilish she’riy butunlik bilan birga, xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan musiqiylikni ham yuzaga chiqaradi. Natijada hikmatlar faqatgina mutolaa uchun emas, balki jamoa bo‘lib zikr majlislarida ijro qilish, tinglovchini ham faol ishtirokchiga aylantirish uchun badiiy “qurol” vazifasini ham o‘taydi. To‘rtinchi misra bandning semantik yakuni bo‘lib, uning aynan takroriy holatda kelishi tinglovchining diqqat va e’tiborini tortib, matnni tez yod olishni osonlashtiradi. Xalq og‘zaki ijodida barqaror qaytariladigan misra (naqorat) she’rning asosiy g‘oyasiga e’tibor qaratish, asardagi umumiy ma’noni jamlash va jamoa bo‘lib ijro qilinganda umumiy hissiy holatni bir me’yorga keltirish vazifasini ham bajaradi. Ayniqsa, tasavvuf she’riyatida takrorlar ruhiy ta’sirni kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababdan, to‘rtinchi misraning takrorlanishi badiiy usul bo‘libgina qolmay, ijro jarayonini boshqaruvchi muhim omil

(cc) BY

sifatida ham talqin etish mumkin. Yassaviya tariqatining “jahriya” deb nomlanishi ham hikmatlarning aynan shunday musiqiy-ijroiy xususiyatlariga bevosita bog‘liqdir. “Jahriya” atamasi zikrni ovoz chiqarib aytish ma’nosini anglatadi. Zikr majlislarida muridlarning doira shaklida o‘tirib, hikmat ijro qilishi ushbu tariqatning muhim asoslaridan biri bo‘lgan. Muridlarning halqa shaklida o‘tirishi, bir tomondan ijtimoiy tenglik ramzi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ovoz va ritmning bir tekisda bo‘lishini ta’minlovchi muhim tuzilma sifatida ahamiyat kasb etadi. Halqadagi jamoa bir maromda aytiladigan naqoratlar orqali “bir ovoz” holatiga yaqinlashadi, bu esa zikrning ruhiy-emotsional samaradorligini oshiradi. Hikmatlarning jamoa bo‘lib ijro etilish tarixi qadimgi turkiy xalqlar og‘zaki ijodiga borib taqaladi. Qadimgi turkiylarning shomon va baxshilari muayyan marosimlarda marsiya, qo‘shiq va turli ritmik matnlarni ijro etganlarida atrofdagi jamoaning ularga jo‘r bo‘lib qo‘shilishi odatiy hol bo‘lgan. Bunda ham qo‘shiqning naqorat qismlari, ohangdor satrlari muhim rol o‘ynagan. Demak, jamoa sifatidagi ijro, ritmik takrorlar, naqoratlarga tayangan og‘zaki poetik tafakkur keyinchalik tasavvufiy muhitga kirib, yangi ma’naviy-ma’rifiy mazmun bilan boyigan holda davom etgan, deyish mumkin. Bu davomiylik Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarining xalq onggiga tez singishi, keng hududlarga tarqalishi va uzoq vaqtga qadar an’ana sifatida yashab qolganligini izohlovchi omillardan biridir.

Xoja Ahmad Yassaviy va uning izdoshlari ijodida barmoq she’r tizimining turli shakllari qo‘llanilgan bo‘lib, o‘n ikki bo‘g‘inli turkum yetakchi o‘rinni egallaydi. Biroq tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yetti va sakkiz bo‘g‘inli turkumda bitilgan hikmatlar ham salmoqli miqdorni tashkil etadi. Ushbu holat tasodifiy emas - u yassaviylik adabiy an’anasining xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liqligini va xalqona ohangga yaqinligini yaqqol namoyon etadi. Mazkur bog‘liqlikni tarixiy-qiyosiy nuqtayi nazardan baholashda biz yana Mahmud Koshg‘ariyning «Devoni lug‘otit-turk» asariga murojaat qilamiz. Ushbu qomusiy asarda qayd etilgan qadimgi turkiy xalq qo‘shiqlarining aksariyati to‘rt misrali tuzilishga ega bo‘lib, har bir misrada yetti bo‘g‘inli turkumning izchil takrorlanishi kuzatiladi. Bu esa yettilik turkumining o‘rta asrlar turkiy adabiyotida uzoq tarixiy ildizlarga ega bo‘lgan va mustahkam o‘rnashgan poetik shakl ekanligini isbot etadi. Yassaviylik adabiyotida yettilik va sakkizlik turkumlarning mavjudligi ushbu an’ananing faqat tasavvufiy-diniy yo‘nalish doirasida emas, balki milliy she’riyatning xalqchil poetik tizimi asosida ham shakllanganligi va rivojlanganligidan dalolat beradi. Bu o‘rinda Yassaviy hikmatlarining keng xalq ommasi o‘rtasida tez tarqalib, doimiy mashhurlik qozonishining asosiy sabablaridan birini ham aynan shu xalqona vazn an’anasiga yaqinlikda yaratilganligidadir.

4 3
Erdi ashin/ taturg‘an, 7
Javlaq jag‘ig‘/ qatarg‘an, 7
Boynin tutub/ qazirg‘an, 7

(cc) BY

Basti o‘lum/ ag‘taru[6;38]. 7

Turkiy xalq og‘zaki ijodida yettilik turkum o‘zining shiddatkor tabiatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ushbu vaznda jang lavhalari, tabiat hodisalarining tasviriy ifodalanishi, lirik qahramonning hissiy kechinmalari hamda voqea-hodisalarning tez va keskin sur’atda kechishi singari holatlar o‘z aksini topadi. Yassaviylik adabiy an’anasida esa yettilik turkumning qo‘llanish doirasi va badiiy-g‘oyaviy vazifasi sezilarli darajada o‘zgarib, yangi mazmun bilan boyigan. Ahmad Yassaviy va izdoshlari xalq ongiga tanish va yaqin bo‘lgan bu poetik shaklni o‘z tasavvufiy-axloqiy konsepsiyalari xizmatiga yo‘naltirgan. Natijada, xalq she’riyatida shiddatkor voqealar tasvirini ifodalash vazifani bajargan vazn yassaviylik hikmatlarida ruhiy-tarbiyaviy g‘oyalarning ifoda vositasiga aylangan.

4 3

Iymon shamin/ yondirsang, 7

Ruh qushini/ kuydirsang, 7

Xudoyingga/ sig‘insang, 7

Sahar vaqti/ bo‘lg‘onda[7;177]. 7

Yettilik turkumidagi hikmatlarning sintaktik xususiyatlarining ixchamchiligi buyruq ohangini yuzaga keltirgan. “Tark et”, “esla”, “fikr qil”, “g‘am yema”, “tavba qil” kabi buyruq shakllari orqali muallif o‘quvchi yoki jamoani oddiy kuzatuvchilikdan, hikmat ijrochisi holatiga o‘tkazadi. Shuning uchun yettilik turkumidagi hikmatlarda pand-nasihat tasvir orqali emas, ko‘proq da’vat ohangi orqali ifodalangani kuzatiladi. Chunki bu vazn o‘zining qisqa, lekin ta’sirchan misralari bilan xitob va undov ohangini tabiiy ravishda o‘zida mujassamlashtira olgan. Muallif tomonidan tinglovchiga yo‘naltirilgan murojaat, ruhiy poklanishga da’vat va tafakkurga chorlash kabi mavzular aynan ushbu vaznning ritmik imkoniyatlari tufayli o‘zining yuqori ta’sirchanligiga erishgan.

“Devoni hikmat”dagi barmoqning yettilik turkumi yassaviy izdoshlari tomonidan hamm faol qo‘llanilgani ham ko‘zga tashlanadi. Jumladan, “Boqirg‘on kitobi”da Shams O‘zgandiyga (7a, 8a, 16a, 16b 17g, 17d, 18a), Qul Ubaydiyga (23g, 22g, 22d) tegishli hikmatlarda ushbu vazn qo‘llangan.

Shamsiddin:

7 7

Bismilloh deb yeringdin,/ qo‘bg‘il ravon o‘rningdin, 14

Ketsun shayton bo‘ynungdin,/ tahorat qil benamoz[9;80]. 14

Qul Ubaydiy:

7 7

Davlatingga tayonma,/ ganj-u molga inonma, 14

Ham barchaga ishonma,/ bori sendin ketaro[8;36]. 14

(cc) BY

Yassaviylik adabiyotida yetti bo‘g‘inli turkumning qo‘llanilishi oddiy poetik an’ananing davomi emas, balki uning ongli ravishda yangi g‘oyaviy va estetik maqsadlarga moslashtirilishi sifatida baholanishi lozim. Ushbu jarayon yassaviylik maktabining xalq she’riy tafakkuri bilan chuqur bog‘liqligini ko‘rsatibgina qolmay, bir vaqtning o‘zida shu an’anani tasavvufiy-axloqiy ta’limot xizmatiga yo‘naltirish orqali turkiy adabiyotda yangi bir adabiy an’ananing shakllanishiga zamin hozirlagan.

Tadqiqot jarayonida “Devoni hikmat” asarining vazn xususiyatlarini o‘rganish asnosida shunga amin bo‘ldikki, asardagi qator hikmatlar bitilishida turkiy she’riyatning qadimiy mezonlaridan biri hisoblangan barmoq tizimining sakkizlik turkumidan samarali foydalanilgan:

5 3

Eranlar dunyo/ demadi, 8

Dunyoning g‘amin/ yemadi, 8

Haqdin o‘zgani/ demadi, 8

Dunyoni solib/ ketoram[7;149].8

Ahmad Yassaviy hikmatlarida sakkizlik turkumning 5+3 ko‘rinishi qo‘llangan bo‘lsa, uning izdoshlari bu turkumning 4+4 shaklidan ham foydalanishgan. “Boqirg‘on kitobi”dagi Shams O‘zgandiyga tegishli bo‘lgan 18G, 19A, 24Y, Ubaydiy “Hikmatlar” to‘plamidagi o‘ndan ortiq hikmatlar shu turkumda ifodalangan. Ba’zi misralarda turoqlar har xil kelishi mumkin:

Shams O‘zgandiy:

Borcha jahonda/ jon erur, 8

Borcha munga/ hayron erur, 8

Shoh-u gado/ yakson erur, 8

Yo‘qdir o‘lumga/ hech iloj[9]. 8

Ubaydiy:

Oshiq kerak/ topgay xabar, 8

Sening sori/ etgay safar, 8

Ham o‘zidin/ qilg‘ay guzar, 8

Budur murodi/ oshiqning[8; 96].8

Sakkizlik turkumda yaratilgan hikmatlar tuzilish xususiyatiga ko‘ra ko‘pincha qo‘lyozmalarda g‘azal shaklida qayd etilgan bo‘lsa-da, aslida ular har biri to‘rt misradan iborat bandlar asosida qurilgan she’riy tuzilishga ega. Unda qofiya tizimi qat’iy me’yorlarga bo‘ysunadi. Jumladan, dastlabki bandda qofiyaning a-b-a-b shaklida joylashishi hikmat matnida ohangdoshlikni yuzaga keltiradi. Ayrim namunalarda esa hikmat boshidan oxirigacha a-a-a-b tarzidagi qofiya tizimiga egadir. Banddagi qofiyalanish tartibining turlicha bo‘lishi, birinchidan, bandlarning ritmik-intonatsion butunlikka birikishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, qofiyalanish tartibi bandning shakllanib bo‘lganligini ham ko‘rsatadi.

(cc) BY

Ubaydiy:
Yo Rabbano, yo Rabbano, a
Aytib sanga hamd-u sano, a
Jonin kerak qilg‘ay fido, a
Budur murodi oshiqning. b
Oh o‘tidin tortib alam, a
Sendin urib har lahza dam, a
Istay seni bo‘lg‘ay adam, a
Budur murodi oshiqning[8;96]. b

Ushbu bandda Rabbano-sano-fido so‘zlari qofiyadoshlikni yuzaga chiqarmoqda. Ushbu qofiyalanish tartibi she’r ohangining his qilinishiga, mazmun va ritmning uyg‘unlashuviga, o‘quvchi tasavvurida hikmatning yaxlit birlik hosil qilishiga yordam beradi. Bu xalq qo‘shiqlaridagi to‘q qofiya tizimiga mos keladi. Yassaviy izdoshlari hikmatlaridagi qofiyalar ohangdoshlikni yuzaga chiqaribgina qolmay, hikmatlarning didaktik vazifasini kuchaytirishga xizmat qiluvchi poetik markaz rolini ham bajaradi. Ahmad Yassaviy hikmatlari xalq og‘zaki ijodi ta’sirida yuzaga kelganini e’tiborga oladigan bo‘lsak, hikmatlardagi qofiyalar bir nechta uslubiy vazifalarni ham bajaradi:

1. Misrani poetik mantiq bilan tugashiga xizmat qiladi.
2. Misralar orasida kompozitsion bog‘lanish hosil qiladi.
3. Satrlarda ohangdoshlikni yuzaga chiqarib, bandlarni hosil qiladi.
4. Ba’zan radif bilan kelib, ohangdoshlikni kuchaytiradi.
5. Ritmik ravonlikni ta’minlaydi.
6. Mazmunni kuchaytiradi - hikmatlarda qofiyaga olingan so‘zlar asarning umumiy ma’nosini ochib berishga xizmat qiladi. Demak, qofiya barcha bandlarni ohangdoshlik asosida birlashtirib, kompozitsion umumiylikni hosil qiladi.

MUHOKAMA

O‘zbek mumtoz adabiyotidagi qofiyaning tutgan o‘rni haqida olim F. Rayhonovning yozishicha, qofiya “she’rning shakliy birligini saqlaydi, ma’no uzviyligiga ko‘maklashadi, asarning g‘oyaviy mazmunini to‘ldiradi, she’rda obrazlilik va hayotiylikni ta’minlaydi[10;10]”.

Yuqoridagi hikmatning har to‘rtinchi misrasi (*Budur murodi oshiqning*) she’rning oxirigacha aynan takrorlanadi. Bu takror naqorat vazifasini ham bajarib, hikmatdagi asosiy fikrni ta’kidlab ifodalash bilan birga ohangdorlikni oshirishga va bular asosida asarning ta’sir kuchini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, Barcha bandlarda to‘rtinchi misralarning bir xil holatda takrorlanib kelishi she’rning kompozitsion yaxlitligini kuchaytiradi: shaklan bandlarni bir “ip”ga tizadi, mazmunan esa har band yakunida takrorlanadigan fikr orqali g‘oyaviy markazni hosil qiladi. Shu bois to‘rtinchi misra bandlararo bog‘lovchi vazifasini bajarib, she’rni ham musiqiy-ritmik jihatdan uyg‘un, ham semantik jihatdan izchil va bir butun ko‘rinishga keltiradi.

(cc) BY

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, 15-16-asrlardagi yassaviylik adabiy an’anasi o‘zining mazmun va shakl uyg‘unligi bilan turkiy adabiyot taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, barmoq vaznining keng qo‘llanishi ushbu davr she’riyatining xalqchilligi, sodda va ta’sirchan ifoda vositalariga tayanganini ko‘rsatadi. Shams O‘zgandiy, Xudoydod va Ubaydiy ijodi tahlili shuni tasdiqlaydiki, ular barmoq vaznidan nafaqat shakliy vosita sifatida, balki diniy-irfoniy g‘oyalarni ommaga yaqin, tushunarli shaklda yetkazishning samarali usuli sifatida foydalanganlar. Mazkur ijodkorlar asarlarida shakl va mazmun o‘rtasidagi uyg‘unlik, ritmik soddalik va ichki musiqiylik yassaviylik an’anasining asosiy belgilaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, barmoq tizimi orqali yaratilgan she’riy namunalar xalq og‘zaki ijodi bilan bevosita aloqador bo‘lib, bu esa adabiy merosning keng omma orasida tarqalishiga xizmat qilgan. Umuman olganda, yassaviylik adabiy an’anasida barmoq vaznining izchil qo‘llanishi keyingi davr turkiy she’riyati rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan bo‘lib, milliy poetik tafakkurning shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fitrat. Tanlangan asarlar, II jild. - Toshkent: Ma’naviyat, 2000.

2. Hayitmetov A. O‘zbek adabiyotida xalqchillik va xalqchil uslib haqida// O‘TA 1993, №1.

3. KopruluF. Turkedediyatindailkmutasavviflar. Ankara, 1991. sayfa 125

4. Шайхзода М. Асарлар. Олти томлик. 5-том. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1973.

5. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия - Москва: Наука, 1963.

6. Маҳмуд Кошғарий. Девонулуғатит-турк. 1-том. - Тошкент: ФАН, 1960.

7. Аҳмад Яссавий Девони ҳикмат. - Тошкент: Ғафур Ғулом, 1992.

8. Убайдий. Ҳикматлар. - Тошкент: Мовароуннаҳр, 2020.

9. Боқирғон китоби. ЎзР ФАШИ, тошбосма, инв. №288.

10. Райҳонов Ф. Шеър қанотидаги юлдузлар (Ўзбек халқ оғзаки ижодида қофия санъати). - Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.

(cc) BY